



*Ortiq ABDUVALIYEV,*  
*Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi*  
*E-mail: ortiqabduvaliyev@gmail.com*

*JDPU professori, f.f.d A.Saitqosimov taqrizi asosida*

### YOUTH ARE THE BUILDER OF OUR FUTURE, THE TRUSTEE AND SUPPORT OF OUR COUNTRY

Annotation

The article discusses the recognition of the issues of increasing and improving the participation of young people in solving social problems arising from the development of social relations as one of the priority tasks, the transformation of state policy issues related to youth into the most important value of building civil society, and life prospects based on democratic traditions.

**Key words:** Social relations, social problems, state policy, civil society, youth activity, innovative activity, social problem, economy, spiritual reforms.

### МОЛОДЕЖЬ – СТРОИТЕЛЬ НАШЕГО БУДУЩЕГО, ПОПЕЧИТЕЛЬ И ОПОРА НАШЕЙ СТРАНЫ

Аннотация

В статье рассматривается признание в качестве одной из приоритетных задач вопросов расширения и совершенствования участия молодежи в решении социальных проблем, возникающих в связи с развитием общественных отношений, превращение вопросов государственной политики в отношении молодежи в важнейшую ценность построения гражданского общества и жизненных перспектив, основанных на демократических традициях.

**Ключевые слова:** Общественные отношения, социальные проблемы, государственная политика, гражданское общество, молодежная активность, инновационная деятельность, социальная проблема, экономика, духовные реформы.

### YOSHLAR – KELAJAGIMIZ BUNYODKORLARI, MAMLAKATIMIZ ISHONCHI VA TAYANCHI

Аннотация

Maqolada, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishida kelib chiqadigan ijtimoiy muammolarni hal qilishda yoshlarning daxldorligini oshirish va uni takomillashtirish masalalari ustivor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilishi, yoshlarga oid davlat siyosati masalalarini fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim qadriyatiga aylanishi, demokratik an'analar asosida hayotiy istiqbollari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy muammolar, davlat siyosati, fuqarollik jamiyati, yoshlar faolligi, innovatsion faollik, ijtimoiy muammo, iqtisod, ma'naviy islohotlar.

**Kirish.** Jamiyatning barcha sohalarida uchraydigan muammolarni mazmuni, mohiyati, ularning kelib chiqishi va ijtimoiy hayotga ta'sirini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur masala jamiyatda yashovchi insonlar va har bir jamiyat sohalaridagi kichik muammolardan to'umumbashariy miqyosigacha bo'lgan muammolarni o'rganish va tahlil etish bilan bog'liq jarayonlarda muhim hisoblanadi. Bu jarayonda insonlar, sotsial institutlar, hududlar kesimidagi muammolarni zamonaviy asosdagi chora-tadbirlar va texnologiyalar orqali bartaraf etish hamda ularning hayotdagi ijobiy ko'lamdagi natijalarini ko'rsatib berish imkoniyatini hosil qiladi.

Bugungi kunda jahonning har bir mintaqasida, mamlakatlarida va hududlarida aholi farovonligini ta'minlashga to'siq bo'ladigan muammolar ko'payib bormoqda. Bunday muammolar ishsizlik, yuqumli kasalliklarning ko'payishi, ichimlik suvining yetishmasligi, oziq-ovqat tanqisligi kabi jarayonlarda ko'rinib qolmoqda. Mazkur muammolarning ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ularni kelib chiqishi, tarqalishi va inson turmush tarziga ta'sir ko'rsatishi ko'pgina omillar bilan bog'liq. Bunday ijtimoiy muammolar insonlarning ekologik va tabiiy muhitdan nooqilna foydalanishi, resurslarning hududlar bo'yicha teng taqsimlanmasligi kabi omillar bilan bog'liq.

Zamonaviy sharoitda ijtimoiy muammolar mavjudligi tahlili shuni ko'rsatadiki, bu muammolar yillar davomida yig'ilib, ijtimoiy hayotda namoyon bo'la boshlaydi. Natijada

mazkur ijtimoiy muammolar inson hayoti xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Insoniyat bunday ijtimoiy muammollar mavjudligi sharoitida quyidagi masalalarni o'z vaqtida sezish va amal qilishi zarur: 1) ijtimoiy muammolarni kelib chiqish tarixi va uning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish; 2) ijtimoiy muammolarning ko'lamini, uning tarqalish hududlari va ijtimoiy hayotga ta'sirini tahlil etish; 3) ijtimoiy muammolarni jamiyat hayotidagi ko'rinishlarini ilmiy tahlil etish va davlat boshqaruv organlariga uzatish; 4) ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va bu jarayonga aholi, ijtimoiy institutlarni keng jalb etish.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohadagi islohotlar bilan birgalikda mazkur islohotlarga to'siq bo'ladigan ijtimoiy muammolar ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy muammolarni hal etib borish inson manfaati, erkinliklari va huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni to'liq yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak" [5].

Muammolarning mavjudligi va ularning ko'lamining kengayib borishi davlat va jamiyatdan juda muhim chora-tadbirlarni doimiy ravishda olib borishni talab etadi. Buning

asosiy maqsadi inson manfaatlarini ta'minlash va ularning turmush tarzini mustahkamlashdir. Insonlarga ijtimoiy kafolatlar berish, ularning hayot kechirish sifatini yaxshilab borish bu borada asosiy maqsadlardan sanaladi. Ijtimoiy masalalarni hal etilishida ijtimoiy rivojlanish jarayonidagi ba'zi qarama-qarshiliklar, salbiy omillar ekologik muammolar, resurslar taqchilligi kabi beqaror munosabatlar jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy muammolarni ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ular o'ziga xos qonuniyatlar bilan bog'liq holda rivojlanib, tizimli xarakterga ega. Ijtimoiy muammolar inson va jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning istiqboldagi rivojlanishiga oid ilmiy tahlillarni salmoqli ravishda olib borilsa, uning oldi olinib boriladi.

Ijtimoiy muammolar kompleks va tizimli asosda tahlil etib borilishi lozim. Ijtimoiy muammolarning yechimlari iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy asoslarda olib borilishi lozim. Shu asosda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish lozim:

1) zamonaviy nuqtayi nazardan ijtimoiy muammolarni tahlil etish, uning ijtimoiy asoslardagi xarakterini aniqlab borish;

2) ijtimoiy muammolarni ildizini ilmiy asosda aniqlash va uning keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlarini aniqlash;

3) ijtimoiy muammolarni kelib chiqishida ishtirok etadigan obyekt va subyektlarni aniqlash va ularning bu boradagi salbiy rollarini yoritish;

4) ijtimoiy muammolarni bartaraf etish borasida ilmiy xulosalar berish va bu jarayonda ishtirok etadigan institutlar faoliyatini aniqlash va jonlantirish.

Ijtimoiy muammolarni yechish, ularni vaqtida hal etish har bir mamlakatning birlamchi vazifasi hisoblanadi. Ijtimoiy muammolar – aholining demografik asosdagi darajalarini aniqlash, ishsizlikni bartaraf etish, aholini talab va ehtiyojlarini o'rganib chiqish kabi masalalardir. Bularni hal etish hech bir jamiyat va insonning hayoti qarama-qarshiliklarsiz bo'lmaydi.

Bugungi galaballashuv jarayonida davlat mexanizmlari shunday tashkil etilganki, ijtimoiy muammolarni hal qilishda davlatning biron-bir strukturasi yolg'iz o'zi hal qila olmaydi. Bu masalani qadriyatlarimizga tayanadigan boshqaruv tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan mahalla kesimida ko'rib chiqsak. Mahalla hududida ijtimoiy barqaror munosabatlarga tahdid soladigan hal etilishi lozim bo'lgan ijtimoiy muammolar quyidagilardir: korrupsiya, davlat mulkining talon-taroj etilishi; byurokratiya, fuqarolar murojaatlarining o'z vaqtida hal etilmasligi; mahalliychilik, urug'-aymoqchilik va tanish-bilishchilik; inson huquq va erkinliklarining buzilishi; ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'lamining susayishi; narx-navoning barqaror emasligi, savdo tizimidagi kamchiliklar; aholi daromadlari darajasi orasida tafovutning yuzaga kelishi; narkotik moddalar savdosi va narkomaniya; odam savdosi, fohishabozlik va ayollar trafikasi; boqimandalik va o'zibo'larchilik kayfiyatlari; kommunal va transport sohadagi kamchiliklar; sanitar vaziyatning yomonlashuvi, yuqumli kasalliklarning kuchayishi.

Mahalladagi yoshlar ijtimoiy muammolarni hal etish chora-tadbirlari va istiqbollari, ularning mazkur jarayonlardagi faolliklarini oshirish barcha tegishli davlat va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi yanada faollashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-iyundagi yoshlar bilan bo'lgan muloqatda Yoshlarimiz hayotda munosib o'rnini topishi uchun bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarni to'liq ishga solamiz. Sizlar mamlakatimizning ishonchi va tayanchi, kelajagimiz bunyodkorlarsiz, – dedi Prezident [9].

Mahallada yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjud. Xususan, yoshlarning an'anaviy tafakkur yuritishi; muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish va xavf-xatardan qochish; yoshlarning o'z mahallasidagi ijtimoiy muammolardan xabardorsizligi; mavjud muammolarning chuqurligi va murakkabligini to'liq tushuna olmasligi; o'z g'oyalarni samarali amalga oshirish uchun zarur mablag'lar, murabbiylik yoki texnologik vositalardan foydalanishda qiynalishi; innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy va infratuzilmaviy resurslarning cheklanganligi; byurokratik va institutsional to'siqlar; murakkab qoidalar, mahalliy hokimiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmaslik yoki ularning tashabbuslarini namoyish qilish va kengaytirish uchun yetarli platformalarning yo'qligi.

Innovatsion tashabbuslarning barqarorligi va uzoq muddatli ta'sirini ta'minlash ham o'rganishga lozim bo'lgan yana bir muammodir. Ushbu muammolarning ijtimoiy va falsafiy tahlilida, har bir masala bilan bog'liq bo'lgan asosiy sabablar, axloqiy oqibatlar va falsafiy istiqbollarni ham muhim ahamiyatga egadir. Bunday yondashuv mahalladagi ijtimoiy muammolarni hal etishda yoshlarning innovatsion faolligini oshirish bo'yicha muammolar va potensial yechimlarni har tomonlama tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari, mahalla ijodkorlikni rivojlantiruvchi, resurslar bilan ta'minlovchi va hamkorlikni rag'batlantiradigan muhit yaratish orqali yoshlarning innovatsion faolligini qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan mahalla innovatsiyalar, tadbirkorlik va muammolarni hal qilishga qaratilgan dasturlarni taklif qiluvchi maktablar, texnikumlar yoki kasb-hunar ta'limi markazlari kabi sifatli ta'lim muassasalariga kirishni ta'minlashi yoshlarni innovatsion g'oyalarga intilish uchun zarur bilim va ko'nikmalar bilan qurollantiradi.

Innovatsion maydonlarni yaratish mahalla kovorking markazlari, yoki innovatsion laboratoriyalar kabi jismoniy joylarni tashkil etish orqali yoshlarga ajratilgan hududlarni taqdim etadi. Mahalladagi ustozlik dasturlari yoshlarni o'z tajribalari bilan o'rtoqlasha oladigan va muammolarini hal qilishga yordam beradigan murabbiylar bilan bog'lash imkonini beradi; mahalla asosidagi tashabbuslar, tashkilotlar yoki mahalliy korxonalar yosh innovatorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan moliyalashtirish imkoniyatlari, grantlar yoki mikro kreditlar taqdim etishi mumkin.

Bu moliyaviy manbalar yoshlarga o'z g'oyalarni hayotga tatbiq etuvchi korxonalariga aylantirishga va moliyaviy to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi; mahalla yosh innovatorlar, soha mutaxassislari, investorlar va hamjamiyat a'zolarini birlashtirgan tarmoq tadbirlari, seminarlar va uchrashuvlarni tashkil qilishi, kelib chiqishi, qobiliyati va nuqtayi nazari turlicha bo'lgan yoshlarning ishtirokini rag'batlantiradigan inklyuziv muhitni yaratadi.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 79-moddasida, "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi." [10] deb belgilab qo'yilgan.

**Xulosa.** Mahallalarda yoshlarning ijtimoiy muammolarni bartaraf etish jarayonlarini tashkil etishdagi faolligi, bu boradagi namoyon etadigan ijtimoiy mas'uliyati va innovatsion asoslardagi tashabbuslari muhim xususiyatlar hisoblanadi.

Shuningdek, ijtimoiy muammolarni yechishda yoshlar tashabbuslarini amalga oshirish borasidagi ilg'or jarayonlar davlat va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va rag'batlantirilishi, o'z iste'dodi va imkoniyatlarini namoyon

etishi, shu tariqa tashabbuskorlik, omilkorlik va qo'yilgan vazifalar va masalalarni mustaqil yecha olishi kabi muhim salohiyatga ega bo'lishi jamiyat rivojida muhim xususiyat hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.- Т.: “Ўзбекистон”, 2023. <https://lex.uz/docs/6445145>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори “Махаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”. 2022-йил 19-январь. ПҚ-92. <https://lex.uz/uz/docs/5831865>.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонуни <https://lex.uz/acts/3026246>.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 июндаги “2022-2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги 310-сонли Қарори. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. Т., 2016 й. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак, [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
7. Мирзиёев Ш. Нияти улғу халқнинг иши ҳам улғу, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – Б.386.
8. Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги 2013-йил 22-апрелдаги ЎРҚ-350-сонли Қонуни. <https://lex.uz/acts/86256>
9. <https://president.uz/oz/lists/view/7357> 28-iyun 2024-yildagi Yoshlar bilan bo'lgan muloqotidan.
10. <https://constitution.uz/oz/clause/index#section15>